

TIBBIY TURIZMNING TURISTIK XIZMATLAR TIZIMIDAGI O‘RNI VA UNI TARAQQIYOT YO‘NALISHLARI

Vafoxojayeva Dilafruz Marufovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turizm, xususan tibbiyot turizmining ahamiyati kelajakda rivojlanish omillari, jahonda tibbiyot turizmining rivojlanishi nazariy bayon etilgan.*

Kalit so‘z: *Turizm, tibbiyot turizmi, bugungi turizm xizmatlari, fenomen, kapital mablag‘larni jalb qilish.*

Turizm XIX asrning oxiriga borib shakllangan bo‘lsa-da, faqat XX asrga keiib u jadal suratlarda rivojlandi hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat munosabatlarning yuksalishi natijasida u «XX asr fenomeni» nomini oldi. Bugungi kunda turizm - juda kuchli jahon miqyosidagi sanoat bo‘lib, uning jahon yalpi mahsulotidagi ulushi 10 % ni tashkil etadi hamda bu sohaga juda ko‘p sonli xodim lar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag‘lar jalb qilingan. Turizm yirik biznes, katta mablag‘ va global miqyosdagi jiddiy siyosatdir.[3]

Turizm bu:

a) turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi. aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviv savohatlar turi. va’ni turistning faoliyatidir:

b) bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish bo‘yicha turistik faoliyatdir. Bunday faoliyat turli xil turistik sanoat korxonalarini va ular bilan bog‘liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi.[3]

Tibbiy turizm - bu yashash joyidan tashqarida rejalashtirilgan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish, chet elda dam olishni yuqori malakali tibbiy yordam olish bilan birlashtirish amaliyotini anglatuvchi atama hisoblanadi [5].

Xalqaro Tibbiy turizm assotsiatsiyasi (MTA –Medical Tourism Association) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 14 mlndan ortiq odam davolanish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qiladi.

Ko‘pgina mamlakatlar turli xil sharoitlar taklif qilishadi va buning uchun arzonroq davolanishning mavjudligi tibbiy turizm bozorining o‘rishini qo‘llabquvvatlaydi. Misol tariqasida, bugungi kunda dunyoning 50dan ziyod mamlakatlari tibbiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha o‘z milliy dasturlariga ega.

Tibbiy turizm, uni rivojlantirish borasida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar qilishgan, maqola va kitoblar nashr qilishgan.

Rossiyalik olim **Vdovin K.E.** o‘zining maqolasida, “...Agar bemor o‘z tibbiyot ehtiyojlarini qondirish uchun chet elga ketsa, tibbiy xizmatlarning importi dala tibbiy turizmi hisoblanadi. Kirish tibbiy turizmi-bu tibbiy xizmatlarning eksporti, ya’ni

ularga tibbiy yordam ko'rsatish uchun chet ellik bemorlarni jalb qilish" deb ta'kidlagan [4].

Yana bir guruh rus olimlari o'zlarining maqolalarida tibbiyot turizmiga shunday ta'rif beradilar: "Tibbiy turizm va tegishli toifalar sohasidagi asosiy tushunchalarning taqdim etilgan sharhi ushbu sohadagi asosiy toifalarni shakllantirishga mualliflik yondashuvini ishlab chiqishga imkon berdi, masalan: tibbiy turizm; tibbiy klinik turizm; tibbiy kurort turizmi".

Mamlakatimizda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan to'liq hamda samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-son [Farmoni](#) qabul qilingan bo'lib tibbiyot turizmiga aloqador vazifalar belgilangan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Turizm qo'mitasi), Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligining:

"Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi" ("Medical service hospitality") dasturini amalga oshirish;

davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda sanatoriy va pansionatlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimini joriy qilish;

konsalting - diagnostika - davolash - turoperator - transport - tibbiy tarjimon xizmatlarini birgalikda ko'rsatadigan tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish;

"Avitsenna" nomi ostida O'zbekiston Respublikasining tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi brendini ishlab chiqish va uni doimiy ravishda targ'ib qilib borish;

toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish;

tog'li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish qayd etilgan.[1]

Tibbiyot turizmi hozirgi zamon mahsuli emas u qadim davrlardayoq mavjud bo'lgan. O'sha paytlarda ham odamlar tajribali tabiblardan sifatli davolanish olish uchun uzoq masofalarni bosib o'tishga majbur bo'lganlar. Masalan, Chor Rossiyasi davrida zodagonlar orasida Germaniya yoki Chexiya kabi mamlakatlarga sog'lomlashtiruvchi "suv muolajalari" uchun borish urfga aylangan edi.

Bugungi kunda esa Rossiya va MDH mamlakatlarida tibbiy turizm yangi bosqichga chiqdi. Ko'plab bemorlar xorijda davolanishni o'z yurtidagi tibbiy xizmatlarga

munosib muqobil sifatida qabul qilmoqda. Yevropa, AQSh va Osiyo davlatlarida davolanishga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda, minglab bemorlar xorijiy klinikalarga murojaat qilmoqda. Buning asosiy sababi xalqaro tibbiyot markazlarining yuqori darajadagi xizmatlari, tajribali mutaxassislar, qisqa muddatli tashxis va davolash jarayoni hamda narxlarning nisbatan arzonligidir. Chet elda davolanishga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, noyob yoki murakkab kasalliklarga chalingan bemorlar uchun muhim hisoblanadi, chunki bunday hollarda malakali tibbiy yordam ularning yashash mamlakatida mavjud bo'lmashligi mumkin.

Tibbiy turizmni rivojlanishga undovchi besh asosiy omil mavjud:

1. tejamkor xizmatlar;
2. ilg'or tibbiy texnologiyalar;
3. malakali shifokorlar;
4. davolanishni kutish muddatining qisqaligi;
5. qo'shimcha omillar anonimlik, sayohatni dam olish dasturlari bilan birlashtirish imkoniyati va boshqalar.

Bemorlar nafaqat klinikalarda, balki tabiat qo'ynidagi oromgohlarda ham sog'lig'ini tiklab, bir vaqtning o'zida professional tibbiy xizmatdan foydalanishlari mumkin. Masalan, Isroildagi Gersliya tibbiyot markazi, Kineret ko'li bo'yidagi sanatoriyalar yoki Golan tog'idagi "Xamat Tveriya" markazi dunyo miqyosida mashhurdir. "Patient's Beyond Borders" xalqaro tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, tibbiy turizm har yili o'rtacha 40 milliard AQSh dollari daromad keltirmoqda. AQShda 100 milliondan ortiq bemor sug'urta xarajatlarini to'liq qoplay olmagani sababli, Hindiston yoki Tailand kabi mamlakatlarda davolanishni tanlamoqda.

U yerda tibbiy xizmatlar 4–10 baravar arzonroq. Kanada va Buyuk Britaniya fuqarolari esa davlat sug'urtasiga ega bo'lishiga qaramay, navbatda uzoq kutish (ba'zan 2 yilgacha) sababli chet elda davolanishni afzal bilishadi. Hozirgi kunda Hindiston, Turkiya, Singapur, Tailand, Braziliya, Meksika va Janubiy Koreya kabi davlatlar tibbiy turizm bozorida yetakchilik qilmoqda. Masalan, Tailandga yiliga 1,2 million, Meksikaga esa 1 milliondan ortiq bemor tashrif buyuradi. AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarda sog'liqni saqlash xarajatlarining yuqoriligi tibbiy turizmni arzonroq muqobil sifatida ko'rilishiga olib kelgan. Shu sababli ko'plab rivojlanayotgan davlatlar sifatli tibbiy xizmatni past narxlarda taklif etish orqali ushbu bozorni rivojlantirmoqda.[2]

Turkiya Tibbiyot Turizmi Assotsiatsiyasi (TTTA) esa har kuni 160 dan ortiq mamlakattan kelgan bemorlarga onkologiya, neyroxirurgiya, transplantologiya va ortopediya yo'nalishlarida xizmat ko'rsatadi. TTTA xorijiy bemorlarga aeroportdan bepul tashish, mehmonxona chegirmalari va tarjimon xizmatlarini taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasida ham tibbiy turizm sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2018-yil 7-dekabrda Prezident qarori bilan sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish, 2019-2023-yillarda tibbiy turizmni rivojlantirish strategiyasi ishlab

chiqildi. “Medtravel Global System” notijorat tashkiloti tashkil etilib, xorijiy bemorlar uchun 3 oylik “Medical Visa” joriy qilindi.[2]

Xulosa o‘rnida, yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asosan O‘zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud va shu 370 bilan birgalikda yanada boyib borayotgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tibbiy jihozlar va jahonning eng sifatli tibbiy xizmatlar ko‘satayotgan xorij davlatlarida o‘z malakalarini oshirayotgan malakali kadrlar asos bo‘la oladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, tibbiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

Sifat kafolati va akkreditatsiya, Ixtisoslashgan xizmatlar va mukammallik markazlari, Xalqaro sog‘liqni saqlash provayderlari bilan hamkorlik, Sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, Rag‘batlantirish va marketing xizmatlarining yo‘lga qo‘yilganligi tibbiyot turizming istiqbolini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-335-son
2. Dilnoza Tairova. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17610023>
3. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna. Turizm asoslari. TOSHKENT – 2011
4. Вдовин К. Э. Перспективы развития медицинского туризма в Российской Федерации: анализ конкурентной среды методом DEA. Вестник университета. 2019;(6):57-67. <https://doi.org/10.26425/1816-4277-2019-6-57-67>
5. Alimov Abdujamil Mirpulat o‘g‘li, Temirov Azizjon Abduvohid o‘g‘li, O‘ZBEKISTONDAGI TIBBIYOT TURIZMINING O‘RNI VA AHAMIYATI. Science shine International scientific journal. 2024.10.05
6. Vafoxojayeva D. Xalqaro turizm oqimi va sog‘liqni saqlash xarajatlarining tibbiyot turizmini rivojlanishiga ta’siri // Ipak yo‘li bo‘ylab yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlash va madaniy merosni saqlash” 20-21-noyabr, 2025, <https://univ-silkroad.uz>
7. Вафохожаева Д. Медицинский туризм: история развития, сущность и основные составляющие // Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 44-to‘plam_2-qism, Iyun-2025, www.pedagoglar.org